
“SOLIQCCHI - KO'MAKCHI” TAMOYILI ASOSIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR YUZASIDAN SO'X TUMAN SOLIQ INSPEKSIYASI BOSHLIG'I FARIDJON TO'RABOYEVNING HISOBOTI

“Soliqchi - ko'makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan So'x tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i Faridjon To'raboyevning hisoboti

Tadbirkorlik sub'ektlari va aholi bilan o'tkazilgan ochiq muloqotlarda bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda faol ishbilarmonlik muhitini shakllantirishni yanada rag'batlantirish, soliq majburiyatini bajarishda aholi tomonidan ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish maqsadida joriy yil 14-iyun kuni Prezidentning PQ-192-son qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-iyun holatiga quyidagilar hisobdan chiqariladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'i (noturar ko'chmas mulk obektlari bundan mustasno) bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzigacha hisoblangan penya summalari;

oxirgi 6 oy mobaynida moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan YaTTlarning qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliqdan vujudga kelgan qarzi, hamda ularga hisoblangan penya va jarimalar summasi;

xo'jalik yurituvchi subektlarning tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligi uchun qo'llanilgan jarimalar summasi.

Ushbu soliq qarzi, penya va jarimalarni undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlari tugatiladi.

2024-yil 1-iyungacha yer uchastkalaridan hujjatlarsiz foydalanayotgan jismoniy shaxslarga yer solig'ining 3 karra oshirilgan stavkasida soliq hisoblash tartibi to'xtatiladi.

Fermer xo'jaliklariga 2023-yil 1-iyun holatiga shakllangan suv solig'idan qarzini 12 oy mobaynida teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etildi.

2023-yil 1-iyuldan 2024-yil 1-iyulgacha issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko'p bo'lgan tadbirkorlar tomonidan ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida rioya qilinganda tadbirkorlarga qaytarib berish tartibi joriy etiladi:

har bir 5 sotix yer maydoni uchun oyiga kamida 1 nafar ishchining bandligini ta'minlash;

har bir ishchi uchun oyiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadni mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan (980 ming so'm) miqdorda belgilash;

issiqxonaga ixtisoslashgan tadbirkorlik subektlari tomonidan issiqxonaga faoliyati bo'yicha olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etishi.

bilan birga, ularni qiynayotgan muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab berganlaridek, tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-08 14:02:39